

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 2

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr Baxtiyor Islamov	8
Kichik biznesni rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G’oipnazarov	10
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ... Zufarova Nozima Gulamiddinovna	16
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko’rsatkichlari va ekologik muammolar Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich	24
Yashil budjetlashtirish va uni O’zbekistonda joriy etish istiqbollari Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	30
Iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy yo’nalishlari Yormatov Ilmidin Toshmatovich	35
Transport vositalari va yo’llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir Agzamov Shaxboz Akmalovich	39
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish A. X. Salamov	44
Biznes-reja baliqchilik xo’jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida Dosmurotova Shaxista Kengashovna	48
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog’liqligi Axmediyeva Aliya Toxtarovna	55
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich	63
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari Shamsiyev Nodir Muratovich	67
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari Shagazatov Oybek bahodirovich	72
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo’nalishlari Davlatov Sanjar Abdimannonovich	76
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	80
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformsiyaning muhim yo’nalishlari Yuldasheva Kamola Miraliyevna	84
O’zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) Yoriyeva Farangiz Murodillayevna	89
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi Nazarova Umida Avazovna	94
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari Mirzaxodjayev Alisher Botirovich	98
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish Mirzayev Musurmon Umidullayevich	103
Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o’rni va ahamiyati Fayziyeva Aziza Azamat qizi	108
Ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich	113
Ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi	119
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	123
Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна	129



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish	141
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
Sultonboeva Munira bahodirovna	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	
Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта	159
С. С. Алиева, А. Назаров	
Erkin iqtisodiy zonalarining faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
Sheraliyeva Saida Azatovna	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari	170
Ergashev Sarvar Xudoynazarovich	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
Зайнутдинова Умида Джалоловна	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
Qurbonov Muxiddin Abdullayevich	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
G. Adilova	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
Mardiyev Nurali	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlar.....	203
Yaxyayeva Inobat Karimovna	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili	207
Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari	213
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi	
instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar	226
Eshimov Alisher Dasmurodovich	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash	
metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi).....	234
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Elbek Abdulloyevich	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari	245
Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
Kenjayev Soxib Sayfiyevich	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati	
samaradorligini yanada oshirish.....	260
Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli	266
Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
Sobirov Otabek Olimjonovich	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari	277
Kultayev Farxod Shavkatovich	
Tijorat banklari foydasi va rentabillik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish	281
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari	284
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtrishda tahlil qilish.....	297
Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari	302
Abdullayev Boburjon Akbaraliyevich	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni	306
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	310
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation	319
Mukhlisa Ikramova	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri	325
Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
Kadirova Sharofat Amonovna	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО “Ўзтемирйўлийўловчи”	332
Н. Э. Кахарава	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	337
Sharipov Bobur Anvar o'g'li	
“STEKLOPLASTIK” MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish	342
Musyeva Shoira Azimovna	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari	348
M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligini KPI orqali baholash uslubiyati.....	357
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari.....	362
Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifat Umarovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari	369
Tursunova Shaxnoza Farxod qizi	
Процессы цифровизации АО “Hududgazta'minot”	373
Хусанов Кахрамон Нишонович	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi.....	381
Bobayev Isroiljon Abdinabiyeich	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
Sh. Madraimov	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida	397
Xasanova Lola Mamasharifovna	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari	400
B. B. Berkinov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
Karimov Bekzodjon Ilxomovich	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari	420
Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
Финансы или корпоративные финансы	426
Уринов Бобур Насиллоевич	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features	432
Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	437
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash	448
S. B. Inoyatov	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari	453
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari	460
O'lokulova Feruza Mansurovna	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili	463
Usmanov Baxodir Baxtiyorovich	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati	469
Xalmuxamedova Zebaxon Babaxanovna	
Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari	473
M. Yuldosheva	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari	480
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili	487
Mirzayev Mirza Abdullayevich	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini institutsional tahlil qilish mexanizmi.....	492
Saydullayeva Saodat Abdumajidovna	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi	499
Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish	503
Karamatova Noiba Husnitdinovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlarini	510
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari	522
Sultanov Baxram Begdullayevich	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдужаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari	564
Bayjanova Gozsal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida	591
Nabiyev Feruz Nurmurodovich	

INSON VA ATROF-MUHIT DIALEKTIKASI: NOMUTANOSIBLIK KO'RSATKICHLARI VA EKOLOGIK MUAMMOLAR

**Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich**

FarPI, professor

**Maxmudov Nosir Maxmudovich**

TDIU professor

Annotatsiya: Globallashuv sharoitida, insonning atrof-muhitga antropogen ta'siri oqibatida iqlim va yer inqirozlarining asosiy sabablari inson faoliyati bilan bog'langan bo'lib, uglerod gazlarining atmosferaga chqarilishi jadal o'sib borayapti. Maqolada ekologik barqaror rivojlanish oqibatida aholining faravonligining o'sishi, YAIMni o'sishi va ularning atrof-muhitga salbiy ta'siri ya'ni, "dekopling" samarasi asoslangan. Shu bilan birga, "biznes-atrof-muhit"ning ziddiyatli dialektikasi tahlil qilingan. Global ekologik inqirozning birlamchi sabablari, iqtisodiy taraqqiyotning ekologik komponentlari tahlil qilinib, iqtisodiy va ekologik nomutanosiblik ko'rsatkichlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: uglerod gazlari, ekologik aktivlar, yashil energiya, yashil obligatsiya, subsidiya, suv va yer inqirozi, iqlim o'zgarishi, "dekoping" samarasi, "ekologik hayot sifati", yashil ichki mahsulot "Yashil moliya", "Ekologik bozor", biosfera resurslari, ekologik dehqonchilik, ekologik sanoat va ekologik mehnat.

Abstract: In the conditions of globalization, the main causes of climate and land crises due to human anthropogenic influence on the environment are connected with human activities, and the release of carbon gases into the atmosphere is increasing rapidly. The article focuses on the increase in the well-being of the population, the increase in GDP and their negative impact on the environment, that is, the effect of "decoupling" as a result of ecologically sustainable development. At the same time, the conflicting dialectic of "business-environment" is analyzed. The primary causes of the global environmental crisis, the environmental components of economic development are analyzed, and indicators of economic and environmental disparity are highlighted.

Key words: carbon gases, environmental assets, green energy, green bonds, subsidies, water and land crisis, climate change, decoupling effect, "environmental quality of life", green domestic product, "Green finance", "Ecological market", biosphere resources, ecological farming, ecological industry and ecological labor.

Аннотация: В условиях глобализации основные причины климатических и земельных кризисов вследствие антропогенного воздействия человека на окружающую среду связаны с деятельностью человека, при этом выбросы углекислого газа в атмосферу быстро увеличиваются. В статье акцентируется внимание на росте благосостояния населения, росте ВВП и их негативном влиянии на окружающую среду, то есть на эффекте «декаплинга» в результате экологически устойчивого развития. При этом анализируется противоречивая диалектика «бизнес-среда». Проанализированы основные причины глобального экологического кризиса, экологические составляющие экономического развития, выделены показатели экономического и экологического неравенства.

Ключевые слова: углекислые газы, экологические активы, зеленая энергетика, зеленые облигации, субсидии, водный и земельный кризис, изменение климата, эффект декаплинга, "экологическое качество жизни", зеленый внутренний продукт, "зеленые финансы", "экологический рынок", биосфера. ресурсы, экологическое земледелие, экологическая промышленность и экологический труд.

KIRISH

"Bugungi kunda ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga beparvo bo'lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so'nggi 30-yilda o'r-tacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko'tarildi. Mamalakatimizdagi asosiy daryolarning xavzasi va biologik



xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bug'lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda.

Bugungi kunda yashil taraqqiyot borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo'q¹.

Keyingi 50 yillik ichida iste'molchilik jamiyati atrof-muhitga salbiy ta'sir o'tkazganligi natijasida bugungi kunda sof tabiat to'g'risida gap yuritish qiyin, har kuni atmosferaga 60 million tonna karbonat angidrid chiqarilmoqda, sayyoramizda odamlar soni tez ko'payib bormoqda fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanmoqda, ishlab chiqarish jarayoni avtomatlashmoqda, yangi-yangi shaharlar barpo bo'lmoqda, o'rmonlar kesilib ketmoqda, hayvonot va o'simliklar xilma-xilligi kamayib bormoqda va natijada har yili 15 milliard tonna kislorod yo'qolmoqda. Chiqindilar ko'paymoqda, ekologiya buzilmoqda, tuproq hosildorligi pasayib bormoqda, ekin yerlarni cho'llashi avj olmoqda (dunyoda har yili 12 million gektar yer cho'llanadi), Uzbekistonda esa har daqiqada 9 m² yer cho'llanmoqda.

Agar iste'molchilik jamiyati tabiiy resurslardan jadal (ochko'zlarcha, tijorat maqsadida) foydalanib borsa resurslarimiz 40-yildan keyin tugaydi².

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

So'nggi yillarda jamiyat va davlat iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni doimiy nazorat qilish, qayta ko'rib chiqish va bartaraf etishni talab qiladigan ko'plab muammolarga duch keldi. Ular orasida, birinchidan, insonning iqtisodiy faoliyati ta'sirida CO₂ gazlarini atmosferaga chiqishini me'yordan ko'payishi, atrof-muhitning ifloslanishi bo'lib, bu tabiiy muvozanatni tiklash uchun tegishli yashil moliyalash, davlat aralashuvi kabi g'oyat muhim choralar ko'rishni talab qiladi. Ikkinchidan, iqtisodiyotni ekologik toza texnologiyalarga o'tkazish bilan bog'liq yangi imkoniyatlar paydo bo'ldiki, buning uchun suv va havodek zarur bo'lgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish CO₂ gazlarining global chiqindilari hajmi 2016-yilga nisbatan 2020-yili tarixda birinchi marta 5,8%ga qisqarishini ta'minladi. Biroq 2021-yilga gaz va neftdan jadal kechib, energetika tarmoqlarida ko'mirdan foydalanilganliklari sabab CO₂ uglerod chiqindilari hajmi 4,8% ga ko'paydi, ya'ni CO₂ uglerod chiqindilari 1,5 mlrd tonnaga oshdi. 2021-yil jahonda ko'mirni iste'mol qilish avvalgi (2018 y.) darajasiga ko'tarildi va CO₂ uglerod chiqindilarni global darajasi 640 mln. tonna bo'ldi, bu esa ko'mirdan chiqayotgan CO₂ uglerod chiqindisi 14,8 Gt. yoki 2019-yilga nisbatan 0,4% yuqori bo'lganini bildiradi (1-jadval).

1-jadval: Dunyoda uglerod (CO₂) gazlarining atmosferaga chiqaradigan yirik manbalari³

№	Mamlakat nomi	O'lchov birligi	Yillar davomida						
			1990	2000	2010	2015	2020	2022	2023
	Dunyo bo'yicha	mlrd/tonna	22.6	25.7	33.9	36.3	48.5	52.0	55.1
1	XXR	mlrd/tonna	2.4	3.7	9.1	10.7	12.1	16.1	19.3
2	AQSh	mlrd/tonna	5.1	5.9	5.5	5.3	5.2	5.1	5.2
3	Hindiston	mlrd/tonna	5.9	1.01	1.7	2.9	2.6	2.4	3.4
4	Rossiya		2.3	1.7	1.8	1.7	1.8	1.7	1.9
5	Yaponiya		1.1	1.2	1.2	1.3	1.1	1.1	1.2
6	Germaniya	mln/tonna	1.0	871.3	816.6	781.6	758.1	703.1	702.0
7	Eron		204.7	352.3	570.8	622.9	679.1	713.4	735.3
8	Xalqaro yuk tashish		371.2	498.4	662.8	660.1	713.4	730.2	744.1
9	Xalqaro havo yo'llari		258.3	354.5	420.2	493.1	579.2	625.6	670.3
10	Saudiya Arabistoni		173.0	264.2	478.1	604.0	628.1	671.3	686.4
11	Kanada		473.4	557.4	566.7	587.5	603.4	584.1	591.2
12	JAR		312.5	345.3	465.0	477.7	497.2	499.1	511.3
13	Meksika		290.9	397.5	479.3	491.5	496.1	485.7	501.4
14	Braziliya		228.1	362.3	446.5	521.4	479.9	495.1	511.5
15	Avstraliya		277.6	354.2	392.0	403.2	416.0	433.5	491.4
16	Polsha		371.3	312.2	315.8	327.8	304.2	317.6	314.3
17	Fransiya va Monako		386.3	402.1	408.4	379.5	321.3	314.1	330.0

1 "Yashil" o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik–2030. Janubiy Koreyadagi sammitda Sh.M.Mirziyoyev so'zlagan nutqi

2 AQSh resurslar instituti. –Nyu-York. –2022-yil. –79-81 b.

3 Зелёная экономика. Монография. Авторский коллектив. Северо-Западный институт управления. –Москва. –2023 г. с. –46-51.



O'zbekistonda bir-yilda havoga chiqarilayotgan CO₂ gazlari chiqindisi 4-5 million tonna bo'lib, shundan, avtotransport ulushi 50% gacha boradi, bu belgilangan me'yordan 3-4 marta ko'p, keyingi 10 yil ichida O'zbekiston shaharlarida atmosfera havosini ifloslanishi ikki martaga oshdi. Nisbatan bu Denov, Sariosiyo va Samarqand shaharlarida 1,1 -2,1 balli ifloslanish kuzatilgan. Eng yuqori ifloslanish darajasi Toshkent, Termiz, Olmaliq, Angren, Oxangaron, Navoiy va Buxoro shaharlarida, 4,5-5,5 ball kuzatilgan. Toshkent shahrida 6,1 ball bo'lib, havo tarkibida dioksid seri – 0,6; ammiak – 2,3; azot oksidi – 0,29; radioaktiv chang – 0,99; uglerod oksidi – 0,70; ftorli vodorod – 0,58 va formaldegid – 0,24 ni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi daraxtlarni noqonuniy kesishga monitoring e'lon qilgan vaqtdan buyon (2019-2023) 4 yil ichida Toshkent shahri va uning atrofida 49 ming daraxt kesib yuborildi, 20 gektar yashil makon yo'qotildi. Daraxtzorlardan bo'shagan yerlarga rejasiz (shahar bosh rejasiga kiritilmagan) uylar va yo'llar qurildi.

Bu davr ichida O'zbekiston sanoat korxonalarida ko'mir va mazutdan foydalanish 20%ga, sement ishlab chiqarish 2 barovarga ko'paydi, sement zavodlari asosiy qismi xitoylik investorlarga qarashlidir. Chiqindilarni ishlab chiqarish 3 barovarga ko'paydi. Biz chiqindilarni 3 ta guruhga bo'lib, qayta ishlanadigan, qayta ishlanmaydigan va oziq-ovqat toifasiga kiruvchi chiqindilarga bo'lamiz. Bugungi kunda xorijiy investorlar bilan chiqindilarni qayta ishlash salmog'ini ko'paytirish maqsadida yirik loyihalar ustida keng tarmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tabiiy gazni yoqish hisobiga 2021-yili CO₂ uglerod chiqindilari 215 million tonna bo'lib, eng yuqori darajaga erishdi. Shuni ham aytish kerakki, 2021-yili global CO₂, uglerod chiqindilarining 65%i rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda CO₂ uglerod chiqindilari 2019-yilga nisbatan 600 million tonnaga ko'p bo'ldi.

Xitoyda energetika sohasida ko'mirdan foydalanish 7% ga oshdi. Hindistonda ham ko'mirdan foydalanish 2021-yili rekord darajada bo'lib, 2019-yilga nisbatan CO₂ uglerod chiqindilari 30 million tonnaga ko'paydi va 2022-yili CO₂ uglerod chiqindilari vaqtincha me'yorlashdi, AQSHda ham sanoat iqtisodiyoti ko'mir va gazga bog'liq bo'lib, CO₂ uglerod chiqindilari 2019-yilga nisbatan 2021-yili 1,4% ga ko'paydi. Yevropa davlatlarida CO₂ uglerod chiqindilari 2021-yili 2019-yilga nisbatan 80 million tonnaga kamaygan bo'lsa-da, bu davlatlarda ko'mir va gaz asosiy yoqilg'i sifatida qo'llaniladi⁴.

Jahonda 2021-yili 859 milliard dollarlik yashil va ijtimoiy obligatsiyalar chiqarildi va iqlim o'zgarishiga, ekologik muammolarga hamda yashil energetikaga sarflandi. Xususan, 150 milliard dollarlik ijtimoiy obligatsiyalar aholi sog'ligini yaxshilashga, chuchuk suv bilan ta'minlashga, yashil transportni rivojlantirishga sarflandi. Bunday ikki tomonlama yondashuv, bir tomondan, jamiyatning atrof-muhit yaxlitligi, hayotning davom etishi hamma uchun munosib mehnat sharoitini yaratish bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangi yashil investitsiya istiqbolari ta'siri ostida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga olib keldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy mushohada, statistik jadvallardan, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalangan holda iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ta'lim va fan o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati aks ettirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugun jamiyat biosfera ishlab chiqarayotgan resurslardan 50%idan ko'progini iste'mol qilmoqda, ya'ni odamzod tabiatni takror ishlab chiqarish qobiliyatidan ko'p iste'mol qilmoqda. Chunki moddalarning bisofera bo'ylab davriy aylanishi buzildi. N₂O suvning ifloslanishi va uning tanqisligi kuchayib bormoqda. Hozirgi davrda antropogen salbiy ta'sirlar kuchayib ketdi. Bularning hammasi biosferada davriy aylanad takror ishlab chiqarilad, iqlim o'zgarishi biosferaga qattq ta'sir qilib, davriy aylanishni buzib yubordi va natijada biosfera inson uchun zarur resurslarni to'la ishlab chiqara olmayapti.

Bugungi kunda dunyo aholisining yarmi to'yib ovqat yemaydi, 1/4 savodsiz, 1/3 esa toza suv tanqisligida yashaydi, toza suv yetishmaydi, suv kamayib shiddat bilan kamayib boryapti. Dunyoda ko'llar va daryolar kurib qolmoqda. AQSHda Riogranda daryosi qurib qoldi, shu bilan birgalikda barcha qitalarda suv kamayib bormoqda.

Xitoydagi, Ukrainadagi, Rossiyadagi daryolarning 30 foizi kurib koldi. Jamiyat iste'molchilikdan ishlab chiqarishga, qayta ishlashga o'tishi lozim. Ishlab texnologiyalarning ekologik sertifikatga egaligi va atmosfera chiqarilayotgan zararli gazlarning ekologik me'yorlar asosida amalga oshirish muhim hisoblanadi hamda bu masalalar ilmiy tadqiqotlarda to'la o'rganilganligi haqiqat.

Dunyoda aniklangan mavjud tabiiy energiya resurslari (tabiiy gaz va neft) 40-50 yilga foydalanishga yetadi. Energetika butun dunyoda dolzarb masalaga aylanib borayotganligi sababli davlatlar ularning muqobil yo'llarini izlamoda.

4 С.Н.Бобылев. Зелёная экономика. Новая парадигма развития страны. Москва. 2022 г. с. 49-57



Bugun jahon energetikasida yashil energetika resurslarining ulushi 20-30 foizga yetgan. Ayrim Yevropa ittifoqi davlatlarida (Shvetsiya, Shvetsariya, Gollandiya, Finlandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya) davlatlarida 50-55 foizga yetgan. Global iqlim o'zgarishi, Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yengib o'tish yashil iqtisodiyot ayniqsa, yashil moliya, yashil energetika sohalarini jadal rivojlanish yashil o'sish va uglerod neytralligini ta'minlash, toza ichimlik suvi ta'minotini, yo'l-transport infratuzilmasini takomillashtirish masalasiga bevosita bog'liqdir.

BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari (2020–2030-yillar):

- Dunyoda qashshshoqlikka barham berish, to'yib ovqat yemaslik, ochlikni tugatish, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini ta'minlash va farovonlikka erishishdan iborat. Lekin 2022-yilni 2015-yildagi vaziyatga solishtirsak, dunyoda to'yib ovqat yemaslik, ochlik 18,8% ga oshgan;
- Sifatli ta'limni rivojlantirish, dunyo aholisining 25%i savodsiz;
- Aholi uchun arzon, sifatli va xavfsiz va barqaror rivojlanish yashil energiya iste'molini ta'minlash va uni barqaror rivojlantirish;
- Barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, to'liq samarali bandlik va hammani munosib mehnat bilan ta'minlash. Ammo dunyoda 950 million odamlar ishsiz;
- Shahar va qishloqlarda yashayotgan hamma aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash. Dunyoda 40 dan ortiq davlatda 2,5 milliard aholi suv tanqisligiga uchragan;

Dunyoda ekologik hayot sifatiga erishish, ya'ni aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi, atrof-muhit tozaligi, iflos atmosfera darajasi kabi masalalarni tahlil qilish va ularni muqobil yo'llarini topish lozim;

- Ekologik yaxlitlik va ekologik samaradorlikka erishish;
- Bir birlik yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imkorligini me'yorlashtirish. Past uglerodli iqtisodiyotga erishish;
- Uy va kommunal xo'jaliklarini yashil energiya resurslaridan to'la foydalanishini ta'minlash, mavjud ehtiyojlarini qondirish, bugungi kunning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Sayyoramiz aholisi 8 milliarddan oshdi, ularning 1,6 milliard o'rmon va qishloqlarda yashaydi. Rossiyaning 70 million aholisi o'rmonlarda istiqomat qiladi. Dunyoda 80% yovvoyi hayvonlar va jonivorlar o'rmonlarda, cho'lli zonalarida (hududlarda) yashaydi. O'rmon xo'jaligi quruqlikni 4 milliard gektar yerini band qilib, havoni tozalab, kislorod ishlab chiqaradigan asosiy manba hisoblanadi.

2015–2022-yillar Rossiya hududida 3,4 million gektarga yaqin o'rmonlar kesib yuborildi, dunyoda 2,6 milliard aholi qishloq xo'jaligida band, tirikchilik qilmoqda. Bir vaqtning o'zida 52% yerlar (qishloq xo'jaligida) degradatsiyaga uchragan, ekin va haydaladigan yerlarni 30-35% cho'llagan, qurg'oqchilikdan har yili 12 million gektar yer ishdan chiqmoqda (yaroqsiz holga aylanmoqda), bu degani 20 million tonna bug'doy yo'qolmoqda. Sayyoramizda yerlarni degradatsiyasi 74%i qishloq aholisi hayotiga, daromadiga salbiy ta'sir qilmoqda, 120 ta davlatlarda bioxilmaxillik har yili 3-4% qisqarib bormoqda. Shuningdek, 8300 ta turli hayvonlardan 8% yo'q bulmoqda, 22% yo'qolib ketish xavfida, 80 ming turdagi daraxtlardan har yili 2-3% yo'qolib ketmoqda. Yukoridagi jarayonlarni rivojlanib borishining 90% inson faoliyati bilan bog'liq holda amalga oshirildi.

Dunyoda aholini tabiiy ko'payishining 90% i rivojlanayotgan mamlakatlarda yuz bermoqda. BMTning ma'lumotlari bo'yicha 2050-yilga borib dunyo aholisi 9,5 milliard bo'ladi va ularning 8 milliard rivojlanayotgan davlatlarda yashaydi. 2050-yilda Afrika aholisi 2 barobarga ko'payadi. Yevropa ittifoqining rivojlangan davlatlarda aholi kamayadi, lekin atrof-muhitni ifloslantiruvchi kompaniyalar soni va tabiiy resurslarni iste'mol qilish ko'payadi.

Dunyoda yer resurslarining 40% i tuproq unumdorligining pasayishi, eroziya, kuriklashib sho'rlashi tufayli degradatsiyaga uchragan. Yer unumdorligi pasayib borishi oqibatida dehqon va fermerlar hosilning 30÷40% gacha yukotishi mumkin.

Sayyoramizda (56 ta davlatda) 2,5 milliardga yaqin odamlar toza ichimlik suvini tuyib ichishmaydi (rivojlangan davlatlarda suv resurslaridan ko'r-ko'rona foydalanib, suvni isrof qilish holatlari uchraydi), 3 milliard odamlar tegishli gigiyena-sanitariya sharoitiga ega emas, har yili 2 million bolalar toza suv yetishmasligi va zarur sanitariya- gigiyena xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yo'kligi sababli vafot etadi. Kelajakda suv tanqisligi yanada kuchayadi, 2030-yilga borib, suv ta'minoti dunyo ehtiyojlarining atigi 60%ini qondiradi xolos, ya'ni har ikki kishidan biriga suv yetishmaydi.

- Dunyodagi don va boshqali mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning 20% gachasi suv resurslaridan to'la foydalana olishmaydi, bu holat kelajakda qishloq xo'jaligida suv tanqisligi yuz berib, hosildorlik pasayib ketishiga sabab bo'ladi.
- Sayyorada o'rmonlarni kesib tijorat maqsadida ishlatilishi keskin o'sadi va 2030–2040-yillarda o'rmon maydoni 12%ga qisqarishi ehtimoli bor.
- Yer aholisining uchdan bir qismi istiqomat qilayotgan lalmi-hosildor yerlar cho'llanish xavfi ostida bo'ladi.
- Iqlim o'zgarishi, havoni isib ketishi natijasida dengiz va okean qirg'oqbo'yi hududlarida 2 milliardga yaqin odamlarni turmush tarziga, atrof-muhit ifloslanadi va insonlar salomatligiga salbiy ta'sir qiladi.
- Dunyoda 2040-yilga kelib, aholi 8 milliarddan 9 milliardga ko'payadi, o'rta daromadli iste'molchilar esa keyingi 20 yil ichida 3 milliardga ko'payadi, resurslarga bo'lgan talab 2 barobardan oshadi.



2040-yilga borib, dunyoning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji 50-60%ga, oziq-ovqat narxlari 50% ga oshadi, energiya resurslari 50%ga va suvga bo'lgan ehtiyoji 30-35% oshadi⁵.

■ Is gazlarining (dunyoda CO₂, emissiyasi) atmosferaga chiqarilishi 65 milliard tonnaga boradi, bu holat O'zbekistonda yillik hajmi 45 million tonnani tashkil etadi va sayyorada chiqindilar inkirozi yuz beradi.

Yuqoridagilarning barchasi ekologik suv, yer, iqlim inkirozga olib kelib, (YAIM) iqtisodiy usishga yangi cheklavlarga ko'payadi. Yana bir holat ekologik omillarni hisobga oladigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qiymatlari to'la hisobga olinmaydi. Chunki YAIM o'sishi energiya ishlab chiqarish, metall eritish, o'rmonlarni kesish, tabiiy boyliklarni sotish, eng muhimi neft, gaz narxining oshishiga asoslangan bo'ladi.

Atrof-muhitning ifloslanish darajasi va iqtisodiy o'sishlar o'rtasidagi nomutanosiblik ekologik inqirozga olib keladi. Atrof-muhitning buzilishi va tabiiy resurslarning tugatishga asoslangan iste'molchilik jamiyatida barqaror iqtisodiy rivojlanish uzoq muddatga kutilgan natijani bermaydi. Dunyo mamalakatlari yashil iqtisodiyotga o'tishga harakat qilishadi. O'zbekistonda so'nggi besh-o'n yil ichida qabul qilingan qarorlar (chiqindilarni qayta ishlashni 12% dan 50% gacha yetkazish rivojlantirishgo to'g'risida) chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Chiqindilarni yoqishga ixtisoslashgan korxonalarni barpo qilish ko'plab munozaralar tug'diradi, chunki atrof-muhit ifloslanadi, kasallik turlari ko'payadi.

Ko'pincha yashil iqtisodiyot o'z mohiyatiga ko'ra faqat yashil biznesni rivojlantirish, u har xil turdagi tozalash uskunalarni ishlab chiqarishni, ikkilamchi resurslarni, ekologik mahsulotlarni, xizmatlarni chiqindilarni yashil biznes me'yorlari va standartlarini amaliyotda qo'llash demakdir, tadqiqotchilar va ekspert xulosasiga ko'ra Yevropa xalqlarining (Shvetsiya, Finlandiya, Shvetsariya va Gollandiya) 91% va Rossiyaliklarning 74% biznesdan ekologik mas'uliyatni talab qiladi. Shu o'rinda jamiyatimizda biznesni ko'klamzorlashtirishga bo'lgan talabi aholida ekologik tovar ishlab chiqarishda va xizmatlar ko'rsatishda menejerlarni rag'batlantirishi mumkin. Oshxonalarda ekologik jihatdan samarali texnologiyalarni, aqlli filtrlardan (is gazini ushlab qoluvchi) foydalanishni rag'batlantirish lozim bo'ladi.

■ Ekologik me'yor va standartlar ekologik toza materiallar yashil biznesning me'yoriga aylanib boradi⁶.

Shundan kelib chiqib, "biznes-atrof-muhitning bir-biriga bog'liqligi va o'zaro ta'sir qilish mexanizmlarini tahlil qilamiz. Inson faoliyati tabiat bilan bog'langan, o'rmon, suv, dala, ekinzorlarda mehnat qilgan. Masalan, paxta, pilla ishlab chiqarish va uning sanoat asosida qayta ishlab mahsulot olish, mahsulotni sotish, eksport qilish va farmasevtika va mebel sanoatiga xom ashyo yetkazib berish natijasida bir vaqtda iqtisodiy va ekologik samaradorlikka erishiladi.

YAIM – (SE) + PI+YAM + TEM ⁷

Bu yerda:

1. YAIM – yashil ichki mahsulot.
2. SE – sof eksport.
3. PI provard iste'mol.
4. YAM yashil moliya.
5. TEM-toza ekologik mahsulot.

Shuningdek, paxta, bugdoy, pilla va meva-sabzovot mahsulotlarini yetishtirishga sarflangan yashil moliya iqtisodiy va ekologik samara beradi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IXRT) va Osiyo- Tinch okean iqtisodiy hamkorlik (OTIX) tashkiloti 200 turdagi ekologik tovarlarga talab darajasini tahlil qilgan

1. Atmosfera tozaligini nazorat qiluvchi dastgohlar.
2. Chiqindilarni qayta ishlash va monitoring qilish.
3. Elektroavtomobillar, svetodiot lampa energiyalar, ko'mirni qayta ishlovchi yashil texnologiyalar.
4. Organik mahsulotlar, mevalar, poliz ekinlari va sabzovotlari.
5. Kalava ip, jun, ipak-shoyilar, tabiiy matolar, kiyimlar, oziq-ovqatlar.
6. Hamma turdagi qog'ozlar, taxta-yog'ochlar, daraxtlar, chorvachilik hayvonlari.
7. Un, sut mahsulotlari, konditer va asal mahsulotlari, yog'-moy mahsulotlari va hakovzolar.

Inson tabiat ta'sirida yashaydi, mehnat qiladi va mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarish jarayonida resurslardan foydalanadi va mahsulotlar ishlab chiqardi, chiqindilar yaratadi, shu bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta'sir qiladi, havoni ifloslantiradi suv xavzalari ifloslanadi. Shunday ekan, "biznes-atrof-muhit" doimo ziddiyatlar bilan rivojlanadi. Sivilizatsiyaning hozirgi davrida biznes faoliyati rivojlanib borgan sari atrof-muhitga ko'proq salbiy ta'sir qilish tendensiyasi namoyon bo'lmoqda va natijada biznes va atrof-muhit dialektikasi jamiyatda iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirmoqda.

⁵ Зелёная экономика. Монография. Авторский коллектив. Северо-Западный институт управления. —2023 г. с. —98-201.

⁶ Экологик biznesda tozalik mezonlari Moskva, 2018, 17-21 b.

⁷ В. А. Ваганова и др. Основы зелёной экономики. Учебно-методические пособие. —Санкт-Петербург. —2023. —с. 74-77.



XX asrda bo'lib o'tgan ishlab chiqarishdagi ziddiyatlar, avariylar (falokatlar), katastrofalar (ijtimoiy fojialar) va favqulotda vaziyatlar; Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shahridagi AES (1975-yil) avariya (falokat) oqibatida atmosferaga chiqib ketgan radioaktiv zaharli gazlar, Chernobil AES (1986-yil) avariya (fojiasi), Fukusuma-1 (Yaponiya 2011 yil) avariya (fojiasi), Angliyada (1974 yil) kimyo zavodini (korxonasini) portlashi, Xindistonda "Yunion Karbid" zavodidagi (1984-yil) portlashda 5 ming odamlar zaharlanib o'ldi, Shvetsariyada "Sandos" kimyo zavodidagi (1986-yil) pojar (yengin) Reyn atrofidagi faunallarga katta zarar yetkazdi, Shotlandiyadagi "Payper Alfa" (1988-yil) neft mahsulotlari platformasida yong'in bo'lib, 150 nafar odam vafot etdi, atrof-muhit ifloslandi va Meksikada "British Petroleum" (2010-yil) neft platformasida yong'in bo'ldi va suv havzalari to'la zaharlandi. Yuqoridagi hodisalar, avariylar (falokatlar), katastrofalar (fojialar) global iqlim o'zgarishiga, atrof-muhit ifloslanishiga sabab bo'ldi va keltirilgan iqtisodiy zarar 1,4 trln dollar, deb baholandi.

Shu bilan birga, 1970-yillarda bir martalik plastik idishlar, bankalar, qutilarni ishlab chiqarish, ommaviy tus oldi, ularni chiqindilari dengiz va okeanlarda to'planib, orolchalarni vujudga keltiradi. Natijada dengiz va okean jonivorlari plastiklarni suv meduzalari, kichik okean jonivorlari deb iste'mol qilishdi. Buning oqibatida fojealar yuz berdi, qushlar va baliqlar ommaviy qirilib ketdi.

Bu ekologik fojeaning oldini olish maqsadida Yevropa ittifoqi bir martalik foydalaniladigan plastik idishlarni ishlab chiqarish va sotishni ta'qiqlab qo'ydi.

Inson faoliyati ta'sirida atrof-muhit o'zgaradi. Dalalarda hosil yig'ib olindi, yangi yo'llar qurildi, shaharlar, fabrika va zavodlar paydo bo'ldi, o'rmonlar kesildi, neft-gaz ko'mir qazib olindi, hayvonlar turi kamaydi, tuproq va suv inqirozi vujudga keldi. Dunyo aholisi 1950-yilda 2,5 mlrd. edi va 2022-yilga kelib, 8 mlrd. bo'ldi. Gavay universiteti professori Robert Koun ta'kidlashicha, "biosferani buzilishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga faqat insonlar sababchidir".

Demak, oxirgi 500 yil ichida bioxilmaxillikning 850 turi yo'q bo'lib ketgan bo'lsa, keyingi 30-yil ichida inson faoliyatini tabiatga salbiy ta'siri o'n ikki barobarga oshgan⁸.

Kelajakda tabiiy resurslardan oqilona, samarali foydalanishida makroiqtisodiyotni rivojlanishi bu nomutanosiblikka yechim topadi. Iqtisodiy va ekologik ekspertlar (YUNESKO va YUNEP) fikricha, tabiiy kapital tarkibiga: biologik xilmaxillik, ekotizim xizmatlari, yerning tuzilishi, tuproq unumdorligi, suv resurslaridan foydalanish, ekin yerlar maydoni, o'rmonlar va h.k.), biologik turlar (oziq-ovqat mahsulotlari) va gena (sog'liqni saqlash, kasallikka chidamlilik, dori-darmonlar, iqlimga moslashish va h.k.) kirishi mumkin.

An'anaviy iqtisodiyot va atrof-muhit muvozanatini saqlash uchun ekologik mahsulotlar bozorini jadal rivojlantirish zarur.

Agar milliy iqtisodiyot tarmoqlar va sohalar ishlab chiqarayotgan tovar va xizmatlar bozori 75-80% bo'lsa, bu holda ekologik mahsulotlar bozori 20% bulib, quyidagicha shakllanadi.

- shahar va qishloq aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, suv tozalash texnologiyalaridan samarali foydalanish,
- qattiq jismlar va radioaktiv zaharli chiqindilarni qayta ishlashni yo'lga qo'yishi,
- chiqindilardan ikkilamchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish,
- energiya tejankor, yashil texnologiyalardan foydalanish,
- ekologik toza mahsulotlarni ishlab ishlab chiqarish va oziq-ovqat industriyasini barpo qilish;
- yerdagi transport sanoatiga muqobil yoqilg'i turlarini joriy qilish.

Shu bilan bir qatorda yangi sohalarini rivojlantirish zarurati tug'iladi:

- ekologik turizm;
- organik dehqonchilik;
- ekologik mashinasozlik;
- ekologik farmatsevtika va kosmetika;
- ekologik qurilish.

Xulosa qilib aytganda, bu ishlarning amalga oshishi natijasida iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlik mezonlari bir-biriga mos kelishini ta'minlaydi. Bu jamiyatda iqtisodiy va ekologik muvozanatni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

N.Maxmudov va boshqalar-Ekologiya. Darslik. –T.: 2021-y., –21 bet.

М.Бутабоев ва бошқалар. Зелёная экономика – как основа устойчивого развития. –Монография. –Т.:2019 год.

N.Maxmudov. "Yashil iqtisodiyot – muhim hayotiy zaruriyat" maqola. –Xalq so'zi gazetasi. –2022 yil, 23 dekabr. –№274.

В.А.Ваганова. "Основы зеленой экономики". Учебное пособие. –Санкт Петербург, –2023 г.

С.Н.Бобылев. Зеленая экономика. Монография. –Москва. –2022 год.

8 Голованов. Г., Новое массовое вымирание. За 500 лет планета потеряла до 260 тысяч всех видов. <https://hiatech plus 2022 г.>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.